



The image of the problems of the period in Surkhan's prose

Sohiba ESHNAZAROVA¹

Termez state university

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2021
Received in revised form
28 March 2022
Accepted 20 April 2022
Available online
15 May 2022

Keywords:

fiction,
comedy,
story,
Surkhan prose,
satire,
humor

ABSTRACT

The article describes the artistic reflection of the problems of the time in the comics "Consilium" and "In one meeting" by Safar Kokilov, one of the great representatives of Surkhandarya literature.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp374-378>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Surxon nasrida davr muammolari tasviri

АННОТАЦИЯ

Калит сўзлар:

badiiy adabiyot,
badiiy asar,
hajviya,
hikoya,
Surxon nasri,
satira,
umor

Maqolada Surxon adabiyotining zabardast vakillaridan biri Safar Kokilovning "Konsilium" hamda "Bir majlisda" deb nomlangan hajviyalarida davr muammolarining badiiy aks etishi yoritib berilgan.

Изображение проблем периода в прозе Сурхана

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

художественная
литература,
комедия,

В статье рассматривается художественное отражение проблем времени в комиксах «Консилиум» и «В одной встрече» Сафара Кокилова, одного из крупных представителей сурхандарьинской литературы.

¹ 2 stage master, Literary studies: Uzbek literature, Termez state university, Termez, Uzbekistan

повесть,
сурханская проза,
сатира,
юмор

Istiqlol davri adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o'rne va milliy madaniy merosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti rivojida munosib o'rnini asoslash, keyingi davr adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar merosini o'rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma'rifiy sohalaridagi amalga oshirilayotgan islohotlar va kechayotgan jarayonlar o'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo'yimoqda. *"Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"*. Bu jarayonda muayyan xalq badiiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma'naviy olamini yuksaltirishdagi o'rne va ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Har qanday badiiy asar ham o'z davrining xoh maishiy, xoh ijtimoiy, xoh siyosiy bo'lsin qandaydir muammolarini aks ettiradi. Chunki ijodkor borliqni o'z ko'zi bilan ko'rib, o'z dunyoqarashi, tafakkuri, bilim darajasi, tuyg'ulari, kayfiyatidan kelib chiqib, asarini yozadi. *"Albatta, adabiyot o'z davrining dolzarb muammolarini yoritib ko'rsatishi kerak. U bu bilan kishilarning diqqat-e'tiborini ma'lum masalaga jalb etadi."* - deydi professor Abdulla Ulug'ov.

Dunyo adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qaysi mavzuda yozilgan bo'lmasin, shuhrat topgan badiiy asarlar davr muammolarini yoritib berganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. O'zimizning adabiyotimizda ham shu holatga ko'zimiz tushadi. Masalan, "O'tkan kunlar" yoki bo'lmasa "Kecha va kunduz" romanlari misolida qaraydigan bo'lsak, har ikki asar ham o'z davrining dolzarb masalasini aks ettirishga xizmat qilgan.

Surxon nasri namoyandalarining ham davrning turli muammolarini aks ettirgan asarlari mavjud. Shular sirasiga Safar Kokilovning qator asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Adib juda ko'p holatlarda jamiyatdagi muammolarni hajviy hikoyalar orqali olib chiqishga harakat qiladi. Adabiyot tarixiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ko'plab ijodkorlar hajviyalar orqali muammolarni aks ettirishni ma'qul ko'rishgani kuzatiladi. Muqimiy, Zavqiy, Qodiriy, Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, Anvar Obidjon kabi bir qancha ustoz ijodkorlar shular jumlasidandir.

"Ustoz yozuvchi Sa'dulla Siyoyev ta'biri bilan aytganda, hajviyotimizni tebratib kelayotgan chinorlar supra o'qlog'ini yig'ishtirib "iste'foga" chiqqan bugungi zamonda yangi bir hajvchi – yozuvchining yuz ko'rsatgani quvonchli hol, albatta... Uning ko'ngli, dardi, nomayi a'moli barcha yozganlarida aks etib turibdi. Safar Kokilov to'g'ri so'zlikni, adolatni qadrlaydi. Yolg'onchilik, loqaydlik va ko'zbo'yamachilikni o'lguday yomon ko'radi".

Adib ijodiga e'tibor qiladigan bo'lsak, aksariyat asarlarida shifokorlar yoxud shifoxona bilan bog'liq voqealar qalamga olinganligining guvohi bo'lamiz. Bu narsa uning shu sohada ishlagani va bu muhitni ichidan bilganligi uchun bo'lsa kerak. Uning

“Konsilium” nomli hajviyasini o‘qigan kishi bugunning og‘riqli muammolariga duch keladi. Hajviya mana bunday boshlanadi:

“Sigaret tutunga to‘la katta xonada oq xalat kiygan bir necha o‘ta jiddiy qiyofadagi kishilar ertalabdan beri munozora qilishadi.

– Yo‘q, yo‘q. Men ololmayman. Bemorning dardi jarrohlik emas. Uni terapevt olsin, – dedi sakkizinchi marta so‘z olgan jarroh Jovliyev.

– Ye, nega endi? Bemor chisto infeksiioniy-ku?! Tag‘in izidan hech kimi yo‘q ekan. Uni yuqumli kasalliklar bo‘limiga yotqizish kerak. Tamom-vassalom, – e‘tiroz bildirdi terapiya bo‘limi boshlig‘i ho‘ppasemiz Qorbosdiyev”.

Bir shifoxonaning shifokorlari kecha kelgan bemorni qaysi soha vrachi olishi kerakligini muhokama qilib, ertalabdan beri bir qarorga kela olishmaydi, aniqrog‘i, “sen ol, sen ol” qilib birbiriga solishadi. Oxir-oqibatda, vaqt peshindan o‘tib ketadi. Hamshira kirib bemorning vafot etganligi va uni qayerga joylashtirish kerakligini so‘raydi. Barcha shifokorlarga jon kirgandek xursand bo‘lishadi va baravariga “Morgga” deb yuborishadi.

“Konsilium” hajviyasi o‘z vazifasiga panja orasidan qaraydigan, inson hayotini qadrlash o‘rniga, o‘zining qulog‘i tinch bo‘lishini istaydigan shifokorlar haqida. Dastlab hajviya sarlavhasining ma‘nosini bilib olish zarur. Izohli lug‘atda konsilium so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan: “*Konsilium [lot. Consilium – maslahat; kengash, muhokama]-ayrim hollarda kasallik xususiyatini, bemorning ahvolini aniqlash hamda davolash yo‘llarini belgilash uchun chaqiriladigan vrachlar kengashi*”. Hajviyada muallifning aralashuvi deyarli sezilmaydi, asar deyarli to‘liq dialog ustiga qurilgan. Muallifning aralashmaganligi, faqatgina dialoglarni kitobxonga havola etgani uchun ham asar tabiiy chiqqan. Asarning shunday nuqtalari borki, bular hajviyaning butun yukini, muallifning mahoratini ko‘rsatib turibdi. Bular quyidagilar:

“Sigaret tutunga to‘la katta xonada oq xalat kiygan bir necha o‘ta jiddiy qiyofadagi kishilar **ertalabdan beri** munozora qilishadi”, “**Kun peshindan og‘di**. Ular esa...”, “Xonada o‘tirganlar ham sekin qo‘zg‘olishdi. **Uy-uyiga...**” hajviyaning boshi, o‘rtasi va oxirida kelgan xuddi shu uchta gapi shifokor xodimlarning oddiy ish kunini qanday qilib o‘tkazishi haqida tasavvur uyg‘otadi. Ertalab kelishadi, majlisni tushgacha o‘tkazishadi va uyiga ketishadi... Hamshiraning gapidan anglashiladigan bemorning kecha keltirilganligi va shifokorlar bir qarorga kela olishmasdan bemor koridorda tong ottirganligi-yu, shu yerda shifokorlardan behuda umid qilib, jon bergani bu holatni yanada bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi..

Demak, shifokorlar ertalabdan buyon bemorga tashxis qo‘yish uchun yig‘ilish o‘tkazishmoqda, kun peshindan og‘di hamki, ular bir qarorga kelisholmadi, buning ikkita sababi bor, bizningcha. Birinchisi, shifokorlar mutlaqo tib ilmidan bexabar, chunki agar ular orasida malakali va bilimlisi bo‘lganida bemorni o‘zi davolashdan qochmagan bo‘lar edi. Ikkinchi sabab ular bemor bilan bog‘liq qog‘ozbozlik ishlaridan qochmoqdalar. Ayni shu farazning haqiqatga anchayin yaqin ekanligi asarda ko‘rinadi. Barcha shifokorlar bir ovozdan uni reanimatsiyaga yotqizmoqchi bo‘lishganda reanimatologning “Hisobot-chi?!” deb yuborganidan bu anglashiladi. Ushbu o‘rindan ma‘lum bo‘ladiki, adib bu hajviyasida yuqorida aytilgan muammolardan tashqari yaqin o‘tmishimiz va davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan hujjatbozlik masalasiga ham mohirona tarzda “zarba berib” o‘tgan ekan.

Asar satirik hajviya sirasiga kiradi, deb bemalol aytish mumkin, chunki bu yerda yuz bergan hodisaga samimiy kulgu emas, achchiq kulgu, zaharxanda bilan munosabat

bildirilmoqda. Kulguga olingan nuqsonni tuzatish emas, batamom bu yo'qotish ko'zlangan bu hajviyada jamiyatdagi illatlarni yoritish maqsad qilingan. *“Satiraning yumordan farqi shundaki, u o'z obyektida ayrim nuqsonlar, tuzatsa bo'ladigan kamchiliklarni emas, balki butunlay tanqid va inkor etiladigan mohiyatni – jamiyat va uning taraqqiyoti uchun jiddiy zarar keltiradigan, ijtimoiy xavfli illatlarni ko'radi. Shu bois satira tuzatishni emas, butunlay yo'qotish maqsadini qo'yadi”*.

Hajviyaning satirik ruhda yozilganligini muallifning asar qahramonlariga tanlagan ismlaridan ham bilish mumkin. Jovliyev, Qorbosdiyev, To'ng'izboyev, Kurrayev, G'assolov kabi nomlarning o'zi ochiq kinoyani ifodalayotganligi ko'rinib turibdi. Bemorni shifokorlar emas, xuddi To'ng'iz, Kurra va yana shunga o'xshash maxluqlar davolayotgan-u, u yerda g'assol ham tayyordek tasavvur uyg'onadi. Yozuvchi bu yerda ismlar oldidan berilgan so'zlar bilan ajoyib ohangdorlik, alliteratsiyani vujudga keltirgan **“Jarroh Jovliyev”, “to'ng'illab To'ng'izboyev”, “kardiolog Kurrayev”** kabilar shular jumlasidandir.

Safar Kokilovning davr muammolarini aks ettirgan yumoristik ruhda yozilgan hikoyalari ham bor. Ulardan biri “Bir majlisda” deb nomlangan hajviyasidir. Hajviya shifoxona bo'lim boshlig'i Qodirovning hikoya qahramoni ham so'zlovchisi bo'lmish shifokordan o'zining o'rnidan majlisga borib kelishini iltimos qilishi bilan boshlanadi. Tuman miqyosida o'tkazilayotgan majlisda tumandagi barcha sohalaridagi insonlar, asosan, boshliqlar yig'ilgan bo'ladi. Bosh qahramon majlisda ko'plab ziyolilar qatnashayotganini ko'rib, majlis madaniy-ma'rifiy mavzuda bo'lsa kerak deb uzoq kutadi, gap esa faqat suv va dehqonchilik xususida boradi. Majlis raisi barchani bir-bir turg'izib hisob so'raydi, navbat qahramonimizga yetganida: “Ishimiz yaxshi. Tez yordam mashinalarimiz barisi soz. Yaqinda g'ildiraklarini almashtirdik. Chaqiriqlarga o'z vaqtida borib turibmiz. Shikoyatlar tushmayapti. Hozir gripp ko'paygan. Kuniga yetmish-saksonta chaqiriqqa borib, bemorlarga baholi qudrat yordam beryapmiz”, - deb javob beradi. Uning javobidan majlis raisining fig'oni falakka chiqadi va : “Hoy do'xtur, kasalingni ishxonangga borib davolaysan. Bu yerda sen bizga, o'zingga berkitilgan fermer xo'jaliklardagi ahvol to'g'risida axborot ber. G'allaning o'sishi qanday? Gul davrida dori berildimi? Paxtani navbatdagi suvdan chiqardilaringmi? Suvni sharbat usulida beryapsilarmi? Menga ana shulardan gapir, o'rtoq do'xtur”,- deya shifokorni “tuzlaydi”.

Shu paytgacha davlat yig'ilishlarida qatnashmagan qahramonimiz endi majlisning mavzusi nima ekanini anglab yetadi. Shu holatda asar qahramoni shunday vaziyatga tushadi: “Boshimga tayoq tekanday karaxt bo'lib joyimga cho'kdim. Bir kulгим keladi, bir jahlim chiqadi”. To'g'ri, mantiqan olib qaraganda, uning kulgisi kelishiga ham, jahli chiqishiga ham haqqi bor. Axir, shifokorlar, o'qituvchilar dehqonchilik bilan shug'ullanib, soatlab majlislarda o'tirsa, bemorlarga kim qaraydi, tibbiyot qachon rivojlanadi?!

Hikoya shunday tugaydi: “Yuz yil yasha –yuz yil o'rgan”, deganlari bejiz emas-da. Shunday qilib, majlis yana ikki soatlar cho'zildi. Paxtasini suvga bostirib zaxlatgan bir-ikki maktab direktori va terapiya bo'limining boshlig'iga “Hayfsan” e'lon qilindi. Bir artist ishdan haydaldi. Bir maktab direktori paxta ko'chatlari tekis o'sib chiqmaganligi uchun chigitni ekmay sotgan degan gumonda ishi prokuraturaga oshirildi.

Majlis oxirida viloyatdan kelgan vakil paxta va g'allaning ahamiyati haqida yana bir soat va'z aytib;

-Ishga mas'uliyat bilan yondashmagan kishilarni jinoiy javobgarlikkacha tortishimiz mumkin. Hamma ishini yig'ishtirib dalaga chiqsin. Kerak bo'lsa, o'sha yerga ko'chib borib yashaysizlar ham...-deb dag'dag'a qildi.

Shu bilan majlis tugab tashqariga chiqqanimizda soat tunggi uchni ko'rsatayotgan edi. Yo'limiz bir bo'lsa ham, bosh hakim meni kutmay jo'nab qopdi. Zarda qilgan-da. Esnay-esnay uyuq piyoda yetib keldim. Xo'rozlar qichqirayotgan edi".

Ushbu hajviyada hikoya qilingan voqealar yaqin-yaqingacha bor edi. Maktab o'quvchilaridan tortib, shifokorlargacha barcha soha vakillari terimga jalb qilgan kunlarni ko'pchilik yodidan chiqarganicha yo'q. Adib o'z davrida urchigan mana shu illatni mahorat bilan qalamga olgan, fosh qilgan. Hajviya oxirida majlisning tungi soat uchda tugaganligi ham "nishonga aniq urilgan o'q" desak, mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda shaxsan Davlat rahbarimiz tomonidan majlisbozlikka qarshi kurash boshlangan va jamiyatimiz bu illatdan qutulib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: *"Keraksiz majlislarni o'tkazishni tugatish kerak. Otbozorga aylanib ketyapti. Ba'zi rahbarlar majlisbozlik bilan kasal. Keraksiz majlislar o'tkazadigan... 40 daqiqadan ko'proq (majlis) o'tkazadiganlar ishdan ketadi"*, - deya ta'kidlab o'tgandilar.

Iste'dodli adib Safar Kokilovning har bir hajviyasiga nazar tashlasangiz, jamiyatimiz, insonlar hayotidagi qaysidir muammoni qo'rqmasdan olib chiqqanligining guvohi bo'lasiz. Shu jihatdan adib ijodi chuqur o'rganilishga, tadqiq qilinishga muhtoj. Adib hajviyalarida o'zi eshitgan va ko'rgan voqealarni, insonlarda uchraydigan qusur va illatlarni shunday borligicha, chetdan turib, hikoya qilib beradiki, qahramonning holati, so'zi, qiliqlari sizda beixtiyor kulgu uyg'otadi, shu bilan birgalikda, tafakkur qilishga chorlaydi. Aynan shuning uchun ham Safar Kokilov ijodi adabiyotimiz uchun muhim

Библиографические ссылки

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси//Халқ сўзи. –Тошкент: 2017. 23-декабрь
2. Namozova S. Safar Kokilov ijodida inson taqdiri muammosi. Bitiruv malakaviy ishi. –Termiz, 2021. – 52 b.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademya nashr, 2013. – 408 b.
4. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: G'G'ulom nomidagi NMIU. 2018. – 308 b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/01/27/meetings/>
7. <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/safar-kokilov/safar-kokilov-konsilium-azhviya/>